# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№7**



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

2025

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 521 sahifa.*
*E’lon qilishga 2025-yil 1-iyulda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o‘rinbosari:**
**Karimov Norboy G‘aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay’ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, “Nobel” mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a’zosi, Turkiya – O‘zbekiston do‘stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G‘afforovna,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug‘aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko‘nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo‘ja o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Utayev Uktam Choriyevich,** O‘z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig‘i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o‘g‘li,** texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o‘g‘li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o‘g‘li,** TDIU katta o‘qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**

**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Ochilov Farkhod,** Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zR Tabiat resurslari vazirligi, O‘zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

Suv tarkibining wireless waterlight qurilmasi ishlashiga ta'siri va iqtisodiy samaradorligini matematik model asosida tahlil qilish ....... 14
**Kungiratbay Sharipov, Ma'ruf Nurmanov**

O'zbekistonda aholi ish bilan bandligini oshirishda davlatning roli ....... 20
**Juraqulov Baxrimurod Ilxomovich**

BIM texnologiyasi: zamonaviy qurilish sohasida samaradorlik va shaffoflik omili ....... 26
**Usmonov F.B., Rajabova A.Sh.**

Nodavlat oliy ta'lim muassasalarida marketing faoliyati samaradorligini oshirish metodologiyasini takomillashtirish ....... 31
**Yuldashov Isomiddin Sidiqovich**

Korxona iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda diversifikatsiya strategiyasining roli ....... 35
**Alimatova Shoxsanam Abdumalik qizi**

Модели совместного развития человеческого капитала и искусственного интеллекта в цифровую эпоху ....... 40
**Явкачев Шохзод Зайниддин углы**

Navigating sustainable development: management challenges and solutions in the oil and gas sector ....... 49
**Kudratkhodjaeva Ziyoda Kamol kizi**

Banklarda moliyaviy barqarorlikning nazariy asoslari ....... 56
**Djalilov G'ayrat Qaxramanovich**

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda turizm industriyasidan foydalanishda xorijiy mamlakatlar tajribalari ....... 66
**Abdulxakimov Zuxrali Tursunaliyevich**

O'zbekistonda barqaror davlat qarzi siyosatini shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari ....... 71
**Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich**

Международный опыт сельскохозяйственного налогообложения и возможности его применения в узбекистане ....... 76
**Salimov Sherzod Baxtiyorovich**

Economic analysis and development strategy of the composites market in the regions of Uzbekistan ....... 81
**S.S.Sidiqov, A.A.G'ulomov, B.R.Tillayeva**

Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy mustaqillikning kutilayotgan istiqbollari va hozirgi natijalari ....... 88
**Muxamedov Ravshan Zafarovich**

Elektron tijoratni soliqqa tortish mexanizmini takomillashtirish yo'llari ....... 93
**Homidov Baxtiyor Rahimberdievich**

Investitsion jozibadorlik konsepsiyasi va uning strategik ahamiyati ....... 99
**Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li**

Beomeditsina signallarini xaar veyvletlari va bo'lak veyvletlari yordamida raqamli ishlash ....... 105
**Uraqov Shokir Ulashovich**

Oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishning ahamiyati, tartibi va takomillashtirish yo'llari ....... 112
**Istamova Sojida Kaxarovna**

The role of all kinds of transports (road, rail, air, and water) in the modern enhancement of tourism logistics in Uzbekistan ....... 117
**Egamberdiyeva Yulduz, Turdiyeva Maftuna**

Sanoat korxonalarida kapitalarini samaradorligini oshirishning baholashning zamonaviy usullarining xususiyatlarida nazariy va amaliy farovonlik sari ....... 126
**Muradov Botir Xayat**

Инструменты планирования урбанизации: методика анализа планового распределения средств в программе «обод махалля» на основе балльной оценки ....... 136
**Салимова Юлдуз Исаковна**

Socio-economic aspects and contemporary theories of higher education finance ....... 141
**Karlibaeva Gulshat**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Transformatsiya jarayonida innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirish yo'llari ........ 147
**Absamatov Anvar Ergashovich**

Перспективы цифрового развития сектора материального производства ........ 153
**С. И. Протасеня, Г. Ж. Аллаева**

«Sustainable logistics practices. Minimizing carbon emissions in global supply chains» ........ 161
**Suleymonova Ezoza, Alimova Bonu**

Analyzing the need for Tourism logistics development in Uzbekistan ........ 169
**Nigmatova Malika**

Management strategies for sustainable tourism development in emerging destinations (a case study of Samarkand, Issyk-kul, and Khiva) ........ 177
**Sabina Urokova**

Qashqadaryo viloyatida turizm sohasini strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy asoslari va ularning qo'llanilishi ........ 184
**Daminova Barno Esanovna**

Опыт турции в управлении миграционными кризисами ........ 189
**Бегматов Хусанбек**

Bulutli texnologiyalar orqali korxona buxgalteriya tizimini raqamlashtirish va samaradorlikka erishish ........ 193
**Soibov Nozimbek Faxriddin o'g'li**

Barqaror rivojlanish doirasida jismoniy shaxslarni kreditlash tizimini isloh qilishning institutsional asoslari ........ 197
**Xalekeyeva Zoya Pirniyazovna, Akmal Abdurahmonov Nurmamatovich**

Moliyaviy autsorsing xizmatlari bozori rivojlanishini takomillashtirishning swot tahliliga asoslangan innovatsion mexanizmlari ........ 202
**San'atbek Komilovish Salayev, Umidbek Komiljanovich Babajanov**

Transformatsiya jarayonlari sharoitida iqtisodiyot tizimi faoliyati va prognozlashning nazariy asoslari ........ 214
**Alimov Fazliddin Xalimovich**

Пути совершенствования подхода к финансированию проектов, реализуемых на принципах промышленной кооперации ........ 220
**Котов В.А., Шадиева Д.Х.**

Yuksalish salohiyatini yuksaltirishda boshqaruv xodimlari qobiliyatidan foydalanish masalalar ........ 225
**Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li**

Bank xizmatlari ommabopligini oshirish yo'llari ........ 228
**Kasimova Muxlisa Anvar qizi**

Chemical industry in uzbekistan: challenges and development ........ 235
**Kudaynazarova Dilnaz Koshkarbaevna**

Samarqand viloyatida tabiiy turistik resurslardan samarali foydalanish usullarini takomillashtirish orqali bandligini oshirish imkoniyatlari ........ 240
**Rabbimov Muhriddin Musoqul o'g'li**

Globallashuv sharoitida ekologik xavflarni kamaytiririshda yashil iqtisodiyotning ahamiyati ........ 246
**Xolbekova Feruzaxon Rasulovna**

Qibray tumanining 2021–2023-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati ........ 249
**Siddikov Alisher Ismoilovich**

Davlat xaridlari tizimida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish: xalqaro tajribalar tahlili ........ 253
**Majidov Nizom Baxramovich**

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning xorij tajribasi ........ 259
**Ermatov Nosir Tohirovich**

Aholi farovonligi darajasiga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarni ekonometrik baholash ........ 265
**Toshaliyeva Saodat Toxirovna, Allamurodova Zuxra Alibekovna**

Сектор услуг как стратегический фактор структурной трансформации экономики Узбекистана ........ 272
**Кадыров Абдурашид Маджидович, Ахмедиева Алия Тохтаровна**

O'zbekistonda valyuta kursini shakllanish holati prognozlari ........ 280
**Samandarov Zuxriddin Raup o'g'li**

Проблемы бухгалтерского учета в условиях цифровизации экономики .......... 288
**Абдуллаев Абдурауф**
Raqamli texnologiyalar sharoitida xizmat koʻrsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish strategiyalari .......... 299
**Kuldoshev Lazizjon Sharifovich**
Davlat boshqaruvi organlarining strategik rejalarini ishlab chiqish boʻyicha xorijiy mamlakatlar tajribasi .......... 303
**Dilshod Pulatov, Xamidaxon Akbarova, Dildora Mirzaeva**
Tijorat banklarining moliyaviy xavfsizligi ta’minlash .......... 310
**Mamatov Sardor Axmatjonovich, Mavlanov Nuriddin Boyqobilovich, Sattarov Nodirjon Absalomovich**
Ziyorat turizmini rivojlantirishda halol standartlarini qoʻllashning nazariy, uslubiy va konseptual asoslari .......... 315
**Azizova Saodat Xabibulloyevna**
Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish boʻyicha yevropa tajribasi .......... 320
**Karlibaeva Gulshat**
Iqtisodiy konsentratsiyalarning sogʻlom raqobat muhitiga ta’siri .......... 325
**Luqmanov Sharifxon A’zam oʻgʻli**
Logistika axborot tizimlarini texnologik jarayonlarga joriy etish .......... 330
**Uzaqov Ortik Shaymardanovich**
Принципы перехода к «Зелёной экономике» в Республике Узбекистан .......... 336
**Хамракулова Сусанна Тотуховна**
Kichik biznesni rivojlantirish iqtisodiy koʻrsatkichlarini prognozlash modellarini qoʻllash .......... 340
**Ibragimova Gulchexra Toxirovna**
Raqamli ta’lim sharoitida liderlikning yangi qirralari .......... 357
**Oqmullaev Ravshan Raximjon oʻgʻli, Xodjieva Durdona Abdurasulovna**
Методология развития экологического менеджмента в промышленном хозяйстве выбросы в атмосферный воздух на горнодобывающих и металлургических предприятиях .......... 361
**Muradov Botir Xayat**
Strategik budjetlashtirish tizimining natijaga yoʻnaltirilgan budjetlashtirish tizimi bilan bogʻliqligi, xalqaro tajriba va Oʻzbekiston uchun tavsiyalar .......... 370
**Xushmurotov Zoyir Bektemirovich**
Cultural branding and the entry of traditional products into the international market .......... 374
**Zebiniso Ganiyeva**
Farovonlikni baholash boʻyicha ilgʻor xorijiy nazariy yondashuvlar .......... 379
**Norqobilov Nusratilla Norsaitovich**
Oʻzbekistonda hududlarini turizm salohiyatini innovatsion yondashuv asosida baholash .......... 384
**Umirova Dilnoza Safarovna**
Tourism education for sustainability: curriculum development in universities of Uzbekistan .......... 393
**Temirova Durdona, Yorqulov Muhammadmurod**
The contribution of small enterprises and private entrepreneurs to job creation in the labor market .......... 399
**Juraboev Haliljon**
Iqtisodiy oʻsish sharoitida transport infratuzilmasi holati va uni rivojlantirish yoʻllari .......... 404
**Haydarov Jahongir Aktamovich**
Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni strategik boshqarishning nazariy asoslari va xorijiy tajribalar .......... 410
**Quvondiqov Farrux Ibragimovich**
Tijorat banklarida iqtisodiy samaradorlikni axborot texnologiyalar orqali rivojlantirish istiqbollari .......... 418
**Dadenova Gulxan Kenesbaevna**
Механизмы усовершенствования процедур выявления и анализа недостоверной финансовой отчетности в условиях учетной практики Узбекистана .......... 422
**Намозов Жасурбек Кувадович**
Влияние цифровых инструментов управления финансами на эффективность использования финансовых ресурсов .......... 428
**Хазираткулов Собиржон**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

На пути к промышленному росту: опыт развивающихся стран ........ 435
**Матлюбов Хуршид Жамшидович**

Yoshlarning moliyaviy mustaqilligiga erishishida aksiyalar bozorining oʻrni va imkoniyatlari ........ 443
**Oʻraqov Bekzodbek Abdurayxon oʻgʻli**

Развитие транспортной инфраструктуры и влияние на качество предоставляемых транспортных услуг ........ 448
**Кайыбеков Парахат Конысбаевич**

Surxondaryo viloyatida 2015-2024 yillar mobaynida oziq-ovqat chakana savdo aylanmasining statistik tahlili ........ 454
**Toshpulatov Bobur Rasul oʻgʻli**

Qishloq xoʻjaligi sohasi investitsiya loyihalarini xalqaro moliya institutlari orqali moliyalashtirish ........ 458
**Tolibov Shoxrux Muminovich**

Qishloq xoʻjaligi korxonalarida buxgalteriya hisobining xususiyatlari va muammolari ........ 463
**Mamadiyarov Dilshad Uralovich, Normurodov Sarvar Norboy oʻgʻli**

Institutional innovation and regional governance for balanced interregional cooperation development: the case of Namangan, Uzbekistan ........ 468
**Sattarov R.A.**

Organizational and economic mechanisms and conceptual directions of tourism development in the region ........ 476
**Daminova Barno Esanovna**

Moddiy zaxiralarni boshqarish va uning bir tsikli modeli ........ 480
**Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich**

Oliy ta'lim xizmatlari sifatini oshirishda inson kapitalini rivojlantirish va uni samarali boshqarish mexanizmlari ........ 485
**Salimov Akmal Alimjonovich**

Mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ilgʻor xorij tajribalari ........ 490
**Shadiyev Alisher Xudoynazarovich**

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida yoqilgʻi-energetika kompleksi korxonalarini barqaror innovatsion rivojlantirish modellari ........ 496
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**

Oʻzbekistonda uzumchilikning oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: muammolar va rivojlanish istiqbollari ........ 502
**Tursunov Toʻlqin Joʻraqulovich**

Tadbirkorlik faoliyatining resurs salohiyati va uni baholashning nazariy yondashuvlari ........ 508
**Salohiddinov Zuhriddin Nuriddinjon oʻgʻli**

Yoshlar bandligini ta'minlashda mehnat migrasiyasining ahamiyati ........ 514
**Masharipov Farrux Oʻtkirovich**

IQTISODIYOT ЭКОНОМИКА ECONOMY



# YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASHDA MEHNAT MIGRASIYASINING AHAMIYATI

**Masharipov Farrux O'tkirovich**
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Mehnat iqtisodiyoti" kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida mehnat migrasiyasining ahamiyati tasniflangan. Shuningdek, tashqi mehnat bozori ehtiyojlari asosida kasbiy ta'lim tashkilotlarida kadrlar tayyorlash, yoshlarni kasbga va xorijiy tillarga o'qitish va ularning ishga joylashashi bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga yoshlarni xalqaro mehnat bozorida ishga joylashishini ta'minlash maqsadida raqobatbardosh etib tayyorlashda ularni kasb va xorijiy tillarga o'qitish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Yoshlar bandligi, yoshlarni ish bilan ta'minlash, mehnat bozori, mehnat resurslari, tashqi mehnat bozori, migrasiya, mehnat migrasiyasi, kasbga o'qitish, xorijiy tillar, kasbiy ta'lim tashkilotlari, bitiruvchilar, xorijiy ish beruvchilar va rekruting korxonalari.

Abstract: This article classifies the significance of labor migration in ensuring youth employment. It also analyzes the challenges related to training personnel in vocational education institutions based on the needs of the external labor market, teaching young people professional skills and foreign languages, and their job placement. In addition, the article presents suggestions and recommendations on teaching young people professions and foreign languages to make them competitive and facilitate their employment in the international labor market.

Key words: youth employment, job placement for young people, labor market, labor resources, external labor market, migration, labor migration, vocational training, foreign languages, vocational education institutions, graduates, foreign employers, and recruiting agencies.

Аннотация: В данной статье классифицируется значение трудовой миграции с целью обеспечения занятости молодежи. Также проанализированы проблемы, связанные с подготовкой кадров в учреждениях профессионального образования на основе потребностей внешнего рынка труда, обучением молодежи профессиям и иностранным языкам, а также их трудоустройством. Наряду с этим даны предложения и рекомендации по обучению молодежи профессиям и иностранным языкам с целью повышения их конкурентоспособности и обеспечения трудоустройства на международном рынке труда.

Ключевые слова: Занятость молодежи, трудоустройство молодежи, рынок труда, трудовые ресурсы, внешний рынок труда, миграция, трудовая миграция, профессиональное обучение, иностранные языки, учреждения профессионального образования, выпускники, зарубежные работодатели и рекрутинговые компании.

## KIRISH

So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida Davlatimiz iqtisodiy o'sishda muhim yutuqlarga erishganiga qaramay mehnat bozorida yoshlarni samarali ish o'rinlari bilan ta'minlash va munosib daromad olish Hukumatning asosiy e'tibor markazida bo'lib qolmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan 2024 yil 23 fevral kuni Yoshlar bandligini ta'minlash masalalari bo'yicha videoselektor yig'ilishida davlatimizning kuchli ijtimoiy siyosatida yoshlar eng ustuvor yo'nalish ekanligi hamda ularga sifatli ta'lim va kasb berish orqali har bir mahallada "Yoshlar bandligi dasturi"ni amalga oshirish bo'yicha vazifalar belgilab berildi [1].

Shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida” 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son Farmoni bilan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasini “Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish orqali ularni bandligini ta’minlash bo‘yicha bir qancha ustuvor vazifalar belgilab berilgan [2].

Shu bilan birga, 2025 yildan boshlab O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024 yil 17 oktyabrdagi PQ-367-son qarori bilan chet mamlakatlarda tashkillashtirilgan holda mehnat qilishning institusional asoslarini mustahkamlash, xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagidagi O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining huquqlarini himoya qilish, sohada sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, ushbu jarayonga xususiy sektorni yanada kengroq jalb qilish maqsadida xorijiy ish beruvchilar tomonidan taklif qilinayotgan ish o‘rinlari haqidagi barcha ma’lumotlar Migrasiya agentligining elektron platformasi, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda ochiq e’lon qilib borish tizimi yo‘lga qo‘yildi.

Shuningdek 2024 yil 1 dekabrdan kasbiy ta’lim tashkilotlarida xorijga ishga ketmoqchi bo‘lgan fuqarolar uchun Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan davlat granti asosida alohida qabul parametrlari belgilanmoqda hamda xususiy bandlik agentliklariga chet elda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagida bo‘lgan fuqarolarni kasb-hunar va chet tillariga o‘qitish bo‘yicha o‘quv kurslarini tashkil etish hamda ushbu jarayonga hamkor xorijiy ish beruvchilarni jalb qilish huquqi berildi.

Xorijda ishga joylashish xizmatlari bozorida takliflarni ko‘paytirish hamda ushbu yo‘nalishda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida 2024 yil 1 dekabrdan boshlab Migrasiya agentligi tomonidan xorijiy ish beruvchilar va rekruting tashkilotlaridan fuqarolarni xorijda ishga joylashtirish bo‘yicha olingan takliflar xususiy bandlik agentliklari o‘rtasida ochiq tanlov yo‘li bilan taqsimlash tartibi joriy etildi.

Bundan tashqari, Migrasiya agentligi, Oliy ta’lim, fan

va innovasiyalar vazirligi hamda Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda 2025/2026 o‘quv yilidan boshlab kasbiy ta’lim tashkilotlarida xalqaro ta’lim dasturlari asosidagi o‘quv kurslarini tashkil etsin hamda ularning bitiruvchilariga xorijiy ish beruvchilar tomonidan tan olinadigan malaka sertifikatlari berish tizimi yo‘lga qo‘yilmoqda [3].

Mazkur tizimini joriy etilishi kelajakda yoshlarimizni xalqaro mehnat bozorida ishga joylashish imkoniyatlarini yanada kengaytiradi hamda yuqori daromadli ish bilan ta’minlanishi natijasida mamlakatimiz iqtisodiyotiga sarmoya olib kirishiga hamda egallagan kasb va mutaxassisligi bo‘yicha xorijiy davlat tajribasi asosida yuqori malakali kadrga aylanishini ta’minlaydi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon hamjamiyatining integrasiyalashuvi natijasida migrasiya jarayonlari ham globallashdi. Migrasiya jarayonlari bugungi kunga kelib turli mintaqa va davlatlarni o‘z doirasida qamrab olmoqda.

Migrasiya muammosi so‘nggi yillarda jahon jamoatchiligini keng tashvishga solayotgan muammolardan biri hisoblanadi. Shu sababli, uni ilmiy jihatdan tahlil etish va ilgari surilayotgan yondashuvlardagi umumiylikni aniqlash hamda yakuniy xulosalar chiqarish muhim omil hisoblanadi.

Inson kapitali nazariyasi T.Shuls va G.Beker migrasiyani inson kapitaliga sarmoya sifatida qaraydi. Qo‘shimcha inson kapitali miqdori olingan farovonlikka bog‘liq. Inson kapitali – bu qayta tiklanadigan resurs bo‘lib, u to‘planib qolish xususiyatiga ega [4].

Birinchi marta inson kapitaliga sarmoyalar L.Sjaastad tomonidan migrasiya to‘g‘risidagi qarori doirasida ko‘rib chiqildi [5]. Biroq migrasiya jarayonlarini tahlil qilishda inson kapitali modelidan faol foydalanish B.Chisvik tadqiqotlari bilan boshlanadi [6].

Inson kapitali modeliga ko‘ra migrasiya to‘g‘risidagi qarorga ta’sir qiluvchi uchta asosiy omil mavjud. Bular: vatanda va potensial boradigan mamlakat ish bilan bandlik sharoitlari, migrantning yoshi va uning ko‘chib o‘tish harajatlaridir.

MDH mamlakatlari iqtisodchi olimlarining tadqiqot ishlarida kasb-hunar ta’lim tizimida kadrlar tayyorlash, ta’lim tizimi va mehnat bozorining o‘zaro aloqalari va rivojlantirish yo‘nalishlari hamda yoshlar bandligini ta’minlashda migrasiyaning ahamiyati to‘g‘risida: P.F.Anisimov, V.S.Volkov, K.G.Kyazimov, S.D.Reznik, E.L.Rudneva, P.A.Stepanov, I.N.Sherer, L.S.Marien, D.M.Melnikov va boshqa iqtisodchi olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarida o‘rganilgan [7].

Sosiologlar V.A.Yadov va A.G.Zdravomislovlarning fikricha, malakaga ega bo‘lmagan yoki past malakali xodimlarning o‘zlarining shaxsiy va ishlab chiqarish jarayonida olib boruvchi faoliyatlaridan qoniqmaganliklari tufayli ish joylarini o‘zgartirishga bo‘lgan harakatlarini ijobiy baholanishi zarur, deb e’tirof etadilar [8].

G.Abduraxmonova, E.Muhitdinovlarning Respublikamizning xalqaro ishchi kuchi migrasiyasi jarayonlarida faol ishtirok etishi uning jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvi va boshqa bir qancha iqtisodiy afzalliklarga ega bo‘lishiga imkoniyat yaratishini ta’kidlashgan [9].

B.Islamov va S.Gazievalar tashqi mehnat bozoriga chiqib ketayotgan migrantlar uchun jo‘nab ketishdan oldingi bosqichda migrantlar foydalana oladigan raqamli dasturlar migrasiya bo‘yicha zarur ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak (resipient mamlakat qonunchiligi, ish haqi, ob-havo, mehnat sharoitlari, madaniyat). Retsipient mamlakatning muayyan tillari o‘rganish uchun ilova sifatida yuklanib olinishi kerakligini ta’kidlagan.

Yuqoridagi olimlar tomonidan bildirilgan fikrlardan ko‘rishimiz mumkinki, yoshlar bandligini ta’minlashda migrasiyaning ahamiyati bo‘yicha chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida mamlakatimiz hamda xorijiy rivojlangan davlatlar iqtisodchi olimlarining yoshlar bandligini ta’minlashda mehnat migrasiyasining ahamiyati bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari, olimlarning qarashlari hamda fikr va mulohazalari tahlil etilgan. Maqolada empirik, tasviriy statistika, guruhlashtirish, qiyosiy va dinamik tahlil tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi globallashuv davrida dunyo bo‘ylab mehnat migrasiyasi jarayonlari ortib bormoqda. Bu jarayon, ayniqsa, iqtisodiy jihatdan rivojlanayotgan mamlakatlar uchun dolzarb masalaga aylangan. O‘zbekiston ham ushbu jarayondan chetda qolmayabdi. Respublikamizda yoshlar sonining yuqoriligi hamda yil sayin oshib borishi ularning bandligini ta’minlashdagi muammolarni echishda mehnat migrasiyasini samarali boshqarish zaruratini tug‘diradi.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda, ayniqsa chekka tuman va qishloq hududlarida, ish o‘rinlarining cheklanganligi hamda tashkil etilayotgan ish o‘rinlarining kamligi yoshlar orasida ishsizlik darajasining oshishiga olib kelmoqda. Bunday sharoitda mehnat migrasiyasi yoshlar uchun muqobil bandlik shakli sifatida ko‘rilmoqda.

Yoshlar bandligini ta’minlashga ko‘maklashish borasida bugungi kunda Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) dunyoning 100 dan ortiq mamlakatlarida 700 ga yaqin faol dastur va loyihalar bo‘yicha ish olib bormoqda. Shuningdek, XMT bandlikning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun davlatlarning texnik, tashkiliy va institusional imkoniyatlarini qo‘llab-quvvatlab bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

Xalqaro migrasiya tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra bugungi kunda dunyoda migrantlar soni 281 millionni tashkil etadi. Bu esa dunyo aholisining 3,6 foiziga to‘g‘ri keladi. Ularning 135 millioni ayollar,

146 millionini erkaklar hisoblanadi[10].

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yil 8 aprel holatiga O‘zbekistonning doimiy aholi soni 37,7 mln tashkil etadi. Shundan 18,7 mln ayollar, 18,9 mln erkaklar tashkil etadi. Shuningdek aholining 14–30 yoshlar oralig‘idagi yoshlar soni 9,7 million nafarni tashkil etmoqda [11].

2023/2024 o‘quv yilida umumta’lim maktablarini 399 777 nafar o‘quvchilar tamomlagan bo‘lib shundan 185 600 nafari ya’ni 46 foizi oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilingan. 16835 nafari ya’ni 4 foizi texnikumlarga o‘qishga kirgan. Qolgan 50 foiz yoshlar mehnat bozoriga biror bir kasbni egallamasdan kirib kelmoqda. Natijada ular ichki va tashqi mehnat bozorida ishga joylashishda bir qancha qiyinchiliklarga duch kelmoqda [12].



**УМУМТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИ 2023/2024 ЎҚУВ ЙИЛИДА БИТИРУВЧИЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТ**




**УМУМТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИ 2023/2024 ЎҚУВ ЙИЛИДА БИТИРУВЧИЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТ**




Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kasbiy ta’limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta’lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024 yil 16 oktyabrdagi PF-158-sonli Faromoni bilan kasbiy ta’limning barcha darajalari bo‘yicha kadrlar tayyorlaydigan yagona texnikumlar tarmog‘i tashkil etildi.

Bugungi kunda 598 ta texnikumlarda 301 ta kasb va mutaxassislik bo‘yicha 353,1 ming nafar o‘quvchilar kasb o‘rganmoqda. 2025/2026 o‘quv yilida 598 ta texnikumlarga 312 dan ortiq o‘quvchilarni qabul qilish bo‘yicha qabul parametrlari tasdiqlangan. Har yili kasbiy ta’lim tashkilotlarini

170 mingdan ortiq o‘quvchilar tugatib mehnat bozoriga kirib kelishadi [13].

**КАСБИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИ 2023/2024 ЎҚУВ ЙИЛИДА БИТИРУВЧИЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТ**




**ЖАМИ: 177 248**

**КАСБИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИ 2023/2024 ЎҚУВ ЙИЛИДА БИТИРУВЧИЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТ**




**ЖАМИ: 19 374**

**КАСБИЙ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИ 2023/2024 ЎҚУВ ЙИЛИДА БИТИРУВЧИЛАР ТЎҒРИСИДА МАЪЛУМОТ**




**ЖАМИ: 97 153**

60 mingdan ortiq texnikumlarni tugatgan bitiruvchilarni bandligini ta’minlash maqsadida mahalliy hokimliklar hamda tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limlari tomonidan yoshlar bandligini ta’minlashga qaratilgan bandlik dasturlari tizimli amalga oshirilmayabdi.

Rasmiy statistik ma’lumotlarga tayanadigan bo‘lsak 2022 yil yakuniga ko‘ra respublikada ishsiz va kasbiy tayyorgarlikdan o‘tmagan yoshlar ulushi 29,9 foizni (2021 yilda - 29,3 foiz), bu esa bugungi kunda mamlakatimizda demografik dividenddan samarali foydalanmaslik muammosi mavjudligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda ishsiz va kasbiy tayyorgarlikdan o‘tmagan yoshlar ulushi foizda




Bugungi kunda jahonda yoshlar orasida ishsiz  va kasbiy tayyorgarlikdan o‘tmagan yoshlarning ulushi 23,3 foizga etdi, bu esa so‘nggi 15 yil ichida kuzatilgan eng yuqori ko‘rsatkich hisoblanadi.

Jahondagi ishsiz va kasbiy tayyorganlikdan o‘tmagan yoshlar ulushining o‘zgarishi dinamikasi, foizda




Xalqaro mehnat tashkiloti ekspertlarining fikricha, yosh ayollar o‘ziga tengdosh erkaklarga qaraganda ishga joylashish imkoniyati pastroq hisoblanadi. 2022 yil ma’lumotlariga ko‘ra dunyoda 27,4 foiz yosh ayollar ish bilan ta’minlangan, yosh erkaklarda esa bu ko‘rsatkich 40,3 foizni tashkil etgan. Boshqacha qilib aytganda, yosh erkaklarning ish topish imkoniyati yosh ayollarga qaraganda deyarli bir yarim baravar yuqori hisoblanadi. Bu kabi gender tafovut, oxirgi 20 yilda deyarli o‘zgarmagan, o‘rta daromadli davlatlarda bu farq 17,3 foizni tashkil etsa, yuqori daromadli mamlakatlarda 2,3 foizni tashkil etmoqda.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yoshlar bandligini ta’minlashda mehnat migrasiyasi muhim vosita sifatida xizmat qilmoqda. Ammo bu jarayonni samarali boshqarish, uni huquqiy va ijtimoiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, yoshlarning xorijda nafaqat ishlashi, balki rivojlanib, o‘z vataniga foyda keltiradigan kadrlar bo‘lib qaytishi uchun shart-sharoitlar yaratish zarur.

Shundagina mehnat migrasiyasi orqali nafaqat yoshlarning bandlik masalasi hal etiladi, balki mamlakatning iqtisodiy intelektual salohiyati ham ortadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**


1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев томонидан 2024 йил 23 февралдаги “Ёшлар бандлигини таъминлаш масалалари бўйича” видеоселектор йиғилиши president.uz [1].
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон — 2030” стратегияси тўғрисида” 2023 йил 11 сентябрдаги ПФ-158-сон Фармони билан “Ўзбекистон – 2030” стратегиясини “Ёшлар ва бизнесни қўллаб-қувватлаш йили”да амалга оширишга оид давлат дастурида [2].
3. Schultz T. Capital Formation by Education //Journal of Political Economy. –1980. –Vol. 68. Becker G. S. Human Capital Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – New York, 1964 [3].
4. Theodore W. Schultz, Theodore William Investing in people:the economics of populationquality. – London: University of California press, 1981-173p[4].
5. Sjaastad L.A The Costs and Returns of Human Migration // Journal of Political Economy.- 1962.-Vol.70. - №5-2.- P.80-93[5].
6. Chiswick Barry R. The Sociology of Immigration. – New York: Berg Publishers, 2014-P.249 [6].
7. Анисимов П.Ф. Социально-экономические основқ регионализации среднего профессионального образования.-М.; ООО “Издательский дом “Новый учебник”, 2004. - 240 с.;
8. Волков Б.С. Основы профессиональной ориентации: учебное пособие. Академический Проект, 2007. - 333 с.; Кязимов К.Г. Проблемы и пути совершенствования воспроизводства квалифицированных рабочих. Монография.-М.: Директ-Медиа, 2016.-224 с.;
9. Резник С.Д. Управление системой содействия трудоустройству молодежи: региональный аспект: монография.- Пенза: ПГУАС, 2009.-144 с.;
10. Руднева Е.Л. Формирование государственного заказа региональной системе профессионального образования: монография.- Кемерово: ГОУ КРИРПО, 2009-200 с:;
11. Степанов П.А. Интеграция уровней образования как основа развития системы профессионального образования в регионе.-М.: Образование и Информатика, 2008.-200 с;
12. Шерер И.Н. Социально-экономическая трансформация регионального молодежного рынка труда: монография.- М.: Зерцало-М, 2011. - 192 с.;
13. Мариен Л.С., Мельникова Д.М. Разработка концепции прогнозирования потребности экономики в квалифицированных кадрах при переходе России на цифровую модель развития. Вестник РЭУ им.Г.В.Плеханов №6 (108), 2019.с.62-70.; [7].
14. Ядов В.А. Некоторые социологические основания для предвидения будущего российского общества // В кн: Россия реформирующаяся. Ежегодник – 2022 / Отв. Ред.: Л.М.Дробижева. М.: Academia, 2002.С. 249-263[8].
15. Г.Абдурахмонова, Э.Мухитдинов “Аҳолини иш билан бандлигини оширишда ташқи меҳнат миграциянинг аҳамияти” “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали №4 июль-август, 2018 йил [9].
16. Jahon banki – Remittance Data Report (2023) ҳисоботлари [10].
17. Ўзбекистон Республикасининг Миллий Статистика қўмитасининг stat.uz электрон сайтидан олинган маълумотлар асосида таҳлил қилингна [11].
18. Мактабгача ва мактаб таълими вазирлигининг uzedu.uz электрон сайтидан олинган маълумотлар асосида таҳлил қилинган [12].
19. Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг prof-emis.edu.uz электрон платформасидан олинган таҳлилий маълумотлар асосида тайёрланди[13].
20. ILO (Халқаро Меҳнат Ташкилоти) – Ёшлар бандлиги бўйича ҳисоботлар[14].

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir oʻgʻli

## 2025. № 7



© Materiallar koʻchirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.


Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.


El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07


Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna boʻlishingiz mumkin. Obuna boʻlgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga toʻlov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida joʻnatishingizni soʻraymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga joʻnatamiz.


““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulugʻbek tumani
Kumushkon koʻchasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz